

4-SINFDA QUDRAT HIKMATNING “BAHOR” SHE’RINI O’QITISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7883895>

Jumaniyozova Muhabbat Xo’sinovna

UrDU “Boshlang’ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti, f.f.n

Ganjayeva Maftuna Hakim qizi

*UrDU Ta’lim va tarbiyaviy ishlar nazariyasi va metodikasi (boshlang’ich ta’lim)
mutaxassisligi 2-kurs magistri*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang’ich sinflarda bahor fasli bilan bog’liq mavzularni o’qitish metodikasi 4-sinfda Qudrat Hikmatning “Bahor” she’rini o’qitish misolida ko’rsatib beriladi. Unda she’rni o’qish va tahlil qilish o’qituvchidan katta mahorat talab qilishi ta’kidlanadi.*

Kalit so’zlar: *Boshlang’ich ta’lim, o’qish darsi, mavsumiy mavzular, bahor fasli, she’r o’qish darsi, ifodali o’qish, tasviriy ifoda vositalari, suhbat.*

Аннотация. *В данной статье показана методика преподавания тем, связанных с весенним периодом в начальных классах, на примере преподавания стихотворения «Весна» Кудрата Хикмата в 4 классе. Подчеркивается, что чтение и анализ стихов требует от учителя большого мастерства.*

Ключевые слова: *начальное образование, урок чтения, сезонная тематика, весеннее время года, урок чтения стихов, выразительное чтение, изобразительные средства выразительности, беседа.*

Annotation. *In this article, the methodology of teaching topics related to the spring season in the primary grades is shown on the example of teaching the poem "Spring" by Qudrat Hikmat in the 4th grade. It is emphasized that reading and analyzing poetry requires great skill from the teacher.*

Key words: *Primary education, reading lesson, seasonal themes, spring season, poetry reading lesson, expressive reading, visual means of expression, conversation.*

Mamlakatimizda boshlang’ich sinf o’quvchilarini har tomonlama rivojlantirish, ularning o’quv-tarbiyaviy jarayonda bilish faoliyatini faollashtirish jamiyat taraqqiyotida asosiy omillardan biri bo’lib xizmat qilishini inobatga olgan holda “...jamiyatda ta’limning nufuzini oshirish va yoshlarning kamolatga intilishini rag’batlantirish – bu barqaror va izchil taraqqiyotga erishish, maktablarni chinakam ma’naviyat va ma’rifat, madaniyat o’chog’iga aylantirish uchun ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo’llash” [1.299-300.] muhim vazifa sifatida belgilangan.

Boshlang’ich ta’limda o’quvchilarga Davlat talim standartlariga mos bilim, ko’nikma va malakalar berish, umumiy madaniyatni shakllantirish uchun uni jamiyat hayotiga moslashtirish, ularda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, inson shaxsini har tomonlama tarbiyalash orqali ularda vatanparvarlik, mustaqillik va demokratiyaga

sodiqlik hissini shakllantirish belgilab qo'yilgan. Ta'kidlash lozimki, yosh avlodni har tomonlama rivojlangan inson qilib tarbiyalashda o'qish darslari katta ahamiyat kasb etadi.

4-sinf "O'qish kitobi" darsligiga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy- ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritilgan.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni mavsumiy mavzular bilan tanishtirish asosiy o'rinni egallaydi. Bunda yil fasllari va ularda tabiatda bo'ladigan o'zgarishlar haqida ma'lumot beruvchi matnlarning alohida o'rni bor. Darslikdan o'rin olgan "Zumrad bahor" bo'limida bahor fasliga oid badiiy va ilmiy ommabop janrdagi asarlar berilgan. Xususan, Qudrat Hikmatning "Bahor" she'ri ham shu bo'limda o'rganiladi.[2.105.]

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bahor fasli mavzusi bilan bog'liq ilmiy-ommabop maqolalar, she'rlar, hikoyalar bilan tanishadilar. Bu asarlar bir mavzu doirasida birlashgan bo'lsa ham, ularning janriy xususiyatlari bir-biridan farq qiladi. Shu bois bu asarlarni o'qish darslarida ana shu xususiyatlar e'tiborga olingan holda ish ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ma'lumki, she'r- ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solingan, his -tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutq. She'rni o'qiganda kichik yoshdagi o'quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poyetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. [3.125.] She'rni o'qish va tahlil qilish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko'p hollarda she'rga oddiy matn nuqtayi nazaridan yondashiladi. Bunday holda she'riy san'at hissiyot bilan bog'liq ekanligi unutiladi, she'r ma'nosining satrlar, so'zlar zaminida yashirin berilishi anglab yetilmaydi. Buning oqibatida o'quvchilar she'rdagi obrazlilikning mag'zini chaqa olmaydilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma'noni o'qish mehnattalab ishdir. Busiz hatto adabiy ta'limning maqsadi ham amalga oshmaydi.

"Bahor" she'rini o'rganishda albatta, avvalo bahor fasli, undagi tabiat manzaralarini izohlash talab etiladi. She'rni o'qishdan oldin unda tasvirlangan tabiatda bo'ladigan o'zgarishlar haqida suhbat o'tkaziladi yoki she'r mazmunini tushunish uchun o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan voqealarni o'qituvchi qisqa qilib aytib beradi. Bu she'rni o'rganish orqali o'quvchilarda bahor fasli haqidagi tushunchalar kengaytiriladi, ularning bahordagi tabiat o'zgarishlarini bilib olish qobiliyatlari o'stiriladi.

Ma'lumki, bahor fasli go'zal ko'rinishi bilan odamda yoqimli tuyg'ular uyg'otadi. Bahorda bolalar varrak uchirishdan olam-olam zavq oladilar. Bahordagi sof va toza havogina emas, yam-yashil rangga burkalib turgan daraxtlar, alvon gulli dala-bog'lar kishida ajib bir kayfiyat uyg'otadi.

"Bahor" she'rini o'rganish jarayonida ayni manzara tasvirlangan rasmlardan foydalanish ham mumkin. Bahor fasli haqida gapirilar ekan, albatta, "zumrad" sifati

qo'shib aytiladi. Bu shu fasl hukmronligi davridagi manzaraga, qir-adirlarning yamayashil bo'lib tovlanishiga, ko'zlarni quvontirishiga ishoradir. Ushbu she'rni o'rganish darsi dastlab o'quvchilarning bahor fasli haqidagi tushunchalarini aniqlashdan boshlanadi. Bahorning o'ziga xos belgilari, bahorda o'ynaladigan o'yinlar, bahor manzarasi va unda nishonlanadigan bayramlar yuzasidan savol-javob o'tkaziladi:

- O'lkamizda bahor fasli qaysi oydan boshlanadi?
- Bahor faslida tabiat qanday libos kiyadi?
- Biz bahorda qanday bayramlarni nishonlaymiz?
- Shoirlarimiz bahorni qanday so'zlar bilan tasvirleydilar.

O'quvchilarning bahor faslida tabiat uyg'onishi tufayli o'lkamizda sodir bo'ladigan o'zgarishlar haqidagi tushunchalari aniqlashtirilib, to'ldiriladi. Shundan so'ng o'qituvchi Qudrat Hikmat haqida qisqacha ma'lumot berib o'tadi.

Videolavha namoyish etiladi. Unda bahorda tabiat uyg'onishi, gullarning ochilishi, qushlarning uchub kelishi, suvlarning shildirab oqishi tasvirlanadi. Kadr ortidan she'r matni o'qiladi. (Yoki o'qituvchi she'rni ifodali o'qiydi.)

Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali ta'limning asosiy shakli she'rni ifodali o'qish hisoblanadi. Bunda she'rni o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhim. Shuning uchun she'r birinchi marta o'qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She'r o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O'qituvchi she'rni shunday ifodali o'qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so'z kuchliroq ta'sir etsin. So'ngra she'rni mustaqil o'qish topshiriladi. O'qish oddiy bo'lishi kerak. O'qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g'azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo'l qo'ymaslik zarur. Bolalar she'rni o'qiganda, she'riy satrga rioya qilishlari kerak, bu jarayonda ularning she'r ritmini buzmasliklariga erishish kerak.

O'quvchilar she'r matnini mustaqil o'qiyotganlarida doskaga ma'nosi izohlanadigan so'zlar yozib qo'yiladi: *"anhor", "yel", "ko'k", "ko'rk", "soyabon tollar"* kabi. Bu so'z va iboralar ma'nosi izohlanadi. Shundan so'ng she'r o'quvchilarga navbat bilan o'qittiriladi, uning mazmuni yuzasidan savollar asosida suhbat o'tkaziladi. Unda quyidagicha savol berilishi mumkin: *"She'rda qaysi fasl tasvirlangan ekan? Tabiatdagi o'zgarishlarni ayting?"* O'qituvchi berilgan javoblarni to'ldirib, o'quvchilarning bahor fasliga doir tushunchalarini boyitadi.

Albatta, she'r o'qish darsida bahor fasli bilan bog'liq holda o'quvchida his-tuyg'ularni yuzaga keltiradigan badiiy tasviriy vositalar ustida ham ishlash kerak.

Qudrat Hikmatning "Bahor" she'rida "Tonggi yellar o'ynoqlar", "Uchib yurar mayin shamollar, Yelpib-yelpib anhor yuzini", "Maysa o'tlar tebranib sekin" misralarida o'xshatish, jonlantirishlar; "Bedapoya yamayashil o'tloq" misralarida metafora qo'llangan. Bular ustida ishlaganda quyidagicha savol-topshiriqlardan foydalanish mumkin:

- Shoir bahor faslida tabiat uyg'onishini qanday tasvirleydi?
- Suvni nimaga o'xshatadi?

- “Soyabon tollar” birikmasini qanday tushunasiz? Tol soyabon bo’la oladimi?

She’r matni ham savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo she’r mazmuni haqida o’quvchilarga ko’p savol berish tavsiya etilmaydi. O’quvchilar she’rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o’zi kifoya.

She’rni o’rganish jarayonida maktab atrofiga sayohat uyushtirish ham mumkin. Erta bahorda tabiatni kuzatish o’quvchilarning tasavvurlarini kengaytiradi, nutqining ifodali, sermazmun bo’lishi uchun boy material beradi.

Xulosa qilish mumkinki, Qudrat Hikmatning “Bahor” she’ri shu faslning o’ziga xosliklarini ifodalovchi eng yaxshi she’r sifatida boshlan`gich sinflarda o’qitiladi. Bu she’rni o’qitishda uning bolada estetik his-tuyg’u uyg’otishiga alohida e’tibor qaratish kerak bo’ladi. She’r o’quvchilarning bahor faslida tabiatda, hayvonot va qushlar hayotida bo’ladigan o’zgarishlar haqidagi bilimlarini boyitishga xizmat qiladi hamda tabiatdan zavqlanishga, uni sevishga, eng asosiysi uni asrashga o’rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. -Toshkent: “O’zbekiston”, 2021.
2. Matchonov S., Shojalilov A.va boshqalar. O’qish kitobi. 4- sinf uchun darslik.- Toshkent, “Yangiyul Poligraph Service”, 2020.
3. Qosimova K., Matchonov S. , G’ulomova X., Yo’ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o’qitish metodikasi. -Toshkent: “Nosir”, 2009.